

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan "Yuksak bilim va malaka - buyuk kelajak kafolati" nomi ostida tashkil etilgan Respublika o'quv-treningi yuzasidan

PRESS-RELIZ

Joriy yilning **9-12-avgust kunlari** Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan "Renessans" sog'lomlashtirish oromgohida **"Yuksak bilim va malaka - buyuk kelajak kafolati" nomi ostida Respublika o'quv-treningi** o'tkazildi.

Ushbu keng ko'lamli oquv-trening Davlatimiz rahbarining **"O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida" 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son Farmoni** ijrosini ta'minlash, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, yangi o'quv yilida xalqaro va mahalliy fan dasturlari va qo'llanmalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida tashlik etildi.

Tadbirning ochilish marosimida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi rahbariyati va mas'ul xodimlari, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi mutaxassislari, tizimdagi ijod, ixtisoslashtirilgan maktab direktorlari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Xususan, ochilish marosimida so'zga chiqqan **Agentlik direktori A.Ubbiyev** mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ahamiyatini ta'kidlab, tizimda erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar mazmun-mohiyatiga alohida to'xtaldi.

Uch kun davom etgan o'quv-trening ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, yangi o'quv yilida xalqaro va mahalliy fan dasturlari va qo'llanmalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishga qaratilgan muloqotlar, mashg'ulotlar, taqdimotlarni o'z ichiga oldi.

Shu bilan birga Respublika o'quv-treningi ishtirokchilari o'rtasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, "Zakovat" intellektual o'yini, sport musobaqalari ham o'tkazildi.

Axborot xizmati (99 875-03 -12)